

PEDAGOGIKA TA'LIMI JARAYONIDA MALAKA OSHIRISH KURSI TINGLOVCHILARINI TABAQALASHTIRILGAN TA'LIMGA O'RGATISH

**N.Shodiev, Q.Yo'ldoshev, R.Shodiev,
Samarqand DU**

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ro'yobga chiqarishning ikkinchi bosqichi (2001-2005 yillar)da «...o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish to'liq amalga oshiriladi», deb ta'kidlangan. Shuningdek, jamiyatimizning ta'lim muassasalariga qo'ygan buyurtmasi aks ettirilgan ushbu hujjatda «Iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoit yaratish» zarurligi ta'lim muassasalari jamoalariga yuklatilgan.

Biroq, umumiy o'rta maktablar va kasb-hunar kollejlari umumiy ta'lim fanlari o'qituvchilari, viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda umumiy ta'lim predmetlari bo'yicha kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari malakasini oshirish mintaqaviy markazi tinglovchilari bilan o'tkazilgan suhbat, so'rovnoma, test natijalari tahlili ularning aksariyat ko'pchiligi tabaqalashtirilgan ta'limni amalga oshirishga tayyor emasliklaridan dalolat beradi.

Ushbu tayyorgarlikning asosiy kamchiliklariga o'qituvchilarning o'z predmetlari bo'yicha mashg'ulotlarda tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etolmasliklari; ko'p xollarda o'qituvchilarning darsda va darsdan tashqari paytda tabaqalashtirilgan ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalari haqida chegaralangan va yanglish, noto'g'ri tasavvur va tushunchalarga ega ekanliklarini; va x.k. ko'rsatish mumkin. IIQozirgi zamon umumiy o'rta maktab va kasb-hunar kolleji umumiy ta'lim fanlari o'qituvchilari tabaqalashtirilgan ta'limning qaysi turini, tabaqalashtirilgan ta'lim uchun o'quv jarayonini tashkil etishning qaysi shakllarini tanlashda katta qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar; umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari uchun pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarning umumilmiy, pedagogik-psixologik, metodik va ilmiy-ixtisoslik tayyorgarligida mavjud imkoniyatlar asossiz ravishda ishlatilmayapti; oliy o'quv yurtida o'quv jarayoni yetarli darajada bo'lajak o'qituvchilarni tabaqalashtirilgan ta'limga tayyorlashga yo'naltirilmagan.

Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim muassasalarida tabaqalashtirilgan ta'limni amalga oshirishga tayyorlashda pedagogik amaliyot, ularning ilmiy-tadqiqot, ilmiy-metodik ishlari, auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning imkoniyatlarini namoyon qilinmaganligini ta'kidlash lozim.

Shu munosabat bilan biz umumiy o'rta maktab, o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari uchun pedagog kadrlar tayyorlayotgan oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan pedagogika, xususiy metodika fanlari dasturlarini tahlil qildik. Bunda universitetlarda «Ta'lim» sohasi va «Fan» sohasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlanishi, shu sababli pedagogika va xususiy metodika fanlari mazmuni va ularga ajratilgan soatlarning bir-biridan sezilarli darajada farq qilishi tufayli

«Pedagogika nazariyasi va tarixi» kursida ko`zda tutilgan «Ta`lim mazmunini tabaqalashtirish», «Hozirgi davr o`rta maxsus va kasb-hunar ta`limi mazmunini tabaqalashtirish muammolari». «Majburiy va ixtiyoriy (fakultativ) o`quv fanlari»; «Darsda o`quvchilar faoliyatini tashkil qilishning yalpi, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini uyg`unlashtirish» kabi savollar hamda «Ta`limni tabaqalashtirish va individuallashtirish», «O`qituvchining iqtidorli bolalar bilan ishlashi», «O`quvchilarda bilishga oid qiziqishlarni rivojlantirish» kabi kurs ishlari mavzulari bo`lajak fizika, matematika, biologiya va x.k. o`qituvchilariga mo`ljallangan. «Pedagogika» fani mazmunida o`z aksini topmagan. Shuningdek, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tinglovchilari uchun amaldagi «Pedagogika masalalari» fani dasturi mazmunida ham tabaqalashtirilgan ta`lim texnologiyasini o`rganishga urg`u berilmagan hamda bu sohada ularga mo`ljallangan o`quv-pedagogik adabiyotlar tahchilligi sezilmoqda.

Yuqorida bayon qilinganlarga asoslanib, oliy o`quv yurtida «Fan» sohasi bo`yicha ta`lim olayotgan talabalar – bo`lajak fizika, matematika, kimyo va x.k. o`qituvchilarini tabaqalashtirilgan ta`lim nazariyasi, mazmuni, shakl, metodlari bilan ma`lum darajada tanishtirish, ularga mo`ljallangan «Pedagogika» fanining bu sohadagi ichki imkoniyatlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir (1-jadval).

«Pedagogika» fanining ta`limni tabaqalashtirish bo`yicha ichki imkoniyatlari

1-jadval

Mavzular, savollar	Tabaqalashtirilgan ta`limning mazmuni, shakl, metodlari
Pedagogika-ning maqsadi, vazifalari	Tabaqalashtirilgan ta`limning asosiy maqsadi - ta`lim jarayonining samaradorligini oshirish va o`quvchilarning o`z bilim, ko`nikma va malakalarini oshirishga bo`lgan ehtiyojlarini ko`proq qondirishdan iboratdir. Uning asosiy vazifasi - ta`lim jarayonining yuqori samaradorligini ta`minlash uchun o`quvchilarining tayyorgarlik darajasini chuqur o`rganish mezonlarini aniqlash, nimalarga asosiy e`tiborni qaratish lozimligini belgilab olishdan iborat. Tabaqalashtirilgan ta`limning ijtimoiy mohiyati, bir tomondan, har bir o`quvchida ijodkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, bunyodkorlikni shakllantirishdan iborat bo`lsa, ikkinchi tomondan, ta`limdagi tenglashtirish uslubidan qutilish, har kimni qiziqishi, qobiliyati, erishgan natijalari asosida yangi istiqbollarga chorlashga zamin yaratish.
«Ta`lim to`g`rida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» - pedagogika fanining metodologik asosi	Tabaqalashtirilgan o`qitishning metodologik asoslari ta`limni insonparvarlashtirish (o`quvchiga har tamonlama hurmat va muhabbat ko`rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo`rlashdan to`la voz kechish) va demokratiyalashtirish (o`quvchi va o`qituvchi huquqlarini tenglashtirish, o`quvchining erkin tanlab olishi, xatoga yo`l qo`yishi, o`z nuqtai nazariga ega bo`lishi huquqlari)dan iborat bo`lib, u pedagogik-psixologik jihatdan har bir o`quvchiga qulay sharoitda qiziqishi, qobiliyati, ehtiyojiga yarasha ta`lim olish imkoniyatini yaratadi.
Kadrlar tayyorlashning milliy modeli	Ma`lum talablar asosida tuzilgan guruhdagi o`quvchilarga ta`lim berish ichki tabaqalashtirish uslubi hisoblanib, u eng yuqori qobiliyatga ega bo`lganlar uchun ham umumiydir. U o`quvchilarning bilim, ko`nikmalarini an`anaviy tarzda hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin. O`quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari, erishgan natijalarini aks ettiruvchi aniq dalillar asosida tuzilgan guruhda esa tashqi tabaqalashtirilgan ta`lim amalga oshiriladi. Yuqorida bayon qilinganlarga asoslanib, tabaqalashtirishning quyidagi modelini keltiramiz. Ichki tabaqalashtirish (toifalarga ajratilmagan): o`quvilarga

	tabaqalashtirilmagan xolda yondashish: -xolatiga qarab tabaqalashtirish; fan dasturi asosida majburiy ta'lim berish. Tashqi tabaqalashtirish (toifalarga ajratilgan): eklektiv (yumshoq) tabaqalashtirish: o'quv- mavzu dasturlari moslashtirilgan ta'lim; erkin mavzularda amaliy mashg'ulotlar o'tkazish. Selektiv (maxsus) tabaqalashtirish
Yangi pedagogik texnologiyalar	Tabaqalashtirilgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalaridan biri sifatida u uslubiy, psixologik-pedagogik, tashkiliy-boshqaruv tadbirlar majmuasi asosida tuzilgan turli xildagi gomogen guruhlarda o'qitish uchun sharoitlar yaratib beradi.
Har bir insonning o'ziga xosligi: uning qiziqishi, layoqati, qobiliyati, iste'dodi, imkoniyatining turli darajada ekanligi. Har bir kishining o'z hayotini ma'nodor bo'lishiga intilishi	O'quvchilarning qobiliyatlari bo'yicha tabaqalashtirilgan ta'lim- ularning: a) umumiy qobiliyatlari va b) xususiy qobiliyatlari bo'yicha, ya'ni eng yuqori o'zlashtirganlar va pastroq o'zlashtirganlar guruhlariga bo'lib o'qitish. Bu xolda sinflarga A,V,S va x.k. harflar beriladi. Intellekt bo'yicha tabaqalashtirilgan ta'lim. Rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan «ay-kyu» testlaridan foydalaniladi. Qobiliyatsizligi bo'yicha tabaqalashtirish. U yoki bu predmetlar bo'yicha past o'zlashtirayotgan o'quvchilarni past darajada kichik xajmda o'rganiladigan guruxlarga birlashtirib o'qitish. Loyihalanadigan kasb bo'yicha tabaqalashtirish. 14-15 yoshdan boshlab ko'pchilik o'quvchilarda u yoki bu fan sohasiga, u yoki bu faoliyat turiga turg'un qiziqish vujudga kelishi munosabati bilan ular ota-onalari bilan birgalikda o'zlarining kelgusi xayoti uchun u yoki bu kasbni tanlashni mo'ljallaydilar. Masalan: rang tasvir, musiqa, raqs san'ati, chet tillari va x.k. o'rganishga layoqati, qobiliyati yorqin namoyon bo'lgan va rivojlanayotgan bolalarni maxsus maktablarda o'qishga jalb etish. O'quvchilar qiziqishlari bo'yicha tabaqalashtirilgan ta'lim. O'quvchilarning qiziqishlari bo'yicha sinflarga (ba'zan maktablarga) guruhlanadilar va ularni qiziqtirgan fanlar chuqur o'rgatiladi. Hozirgi vaqtda respublikamizda fizika-matematika, kimyo-biologiya, gumanitar fanlar chuqur o'rganiladigan sinf va maktablar keng tarqalgan.
Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar	Iqtidorli bolalarni o'qitish va tarbiyalash. Iqtidorli inson jamiyatga oddiy qobiliyatga ega bo'lgan insonga nisbatan ko'proq foyda keltiradi. Shu bois jamiyat va maktab oldida iqtidorli o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash muammosi turibdi. Ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlangani sari bu muammoning keskinligi kuchayib boraveradi. Mamlakatimizda iqtidorli bolalarni izlab topish va namoyon qilish uchun turli tuman tanlovlar, olimpiadalar o'tkazilmoqda. Talantni tarbiyalash, uning tabiiy layoqatini rivojlantirishni har bir maktab, litsey, kollej, oliy o'quv yurtida amalga oshirish zarur, uni uchun ularda tegishli shart- sharoit yaratish zarur.
Mehnat, estetik va ekologik tarbiya: Kasbga yo'naltirish... mehnat darslari	Tabaqalashtirilgan ta'lim sharoitida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishini yaxshi yo'lga qo'yish mumkin. Bunda kasbga yo'naltirish ishi o'quvchilarda o'quv predmetlariga namoyon qilingan va yetarli darajada rivojlangan qiziqishlari tufayli ularni chuqur o'rganishga tayanishi juda ham muhimdir.
Ta'lim metodlari	Tabaqalashtirilgan ta'lim metodlari umumdidaktik metodlar bilan bog'langan.
Ta'limning tashkiliy shakllari	Tabaqalashtirib o'qitishning shakllari: har bir sinf (akademik guruh) ichida ichki tabaqalashtirish; mavjud sharoitlar va yetarli ma'lumotlar asosida tabaqalashtirish; yakka tartibda tabaqalashtirish; o'quvchilarning tanlovlari bo'yicha fakultativ mashg'ulotlar; turdosh predmetlarni chuqur o'rganuvchi sinflar; ixtisoslashtirilgan fizika-matematika, kimyo-fizika maktablari; va x.k.

Shunday qilib, viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti hamda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi umumiy ta'lim predmetlari o'qituvchilarini malakasini oshirish markaz (fakultet)lari professor-o'qituvchilari yuqorida keltirilgan ishlanma (1-jadval)dan foydalanib «Pedagogika masalalari» fani bo'yicha o'quv reja va dasturini tabaqalashtirilgan ta'limning maqsadi, vazifasi, metodologiyasi, modeli, shakl, metodlari kabi masalalar bilan

boyitib tinglovchilarni kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda faol ishtirok etish imkoniga ega bo'ladilar.